

Manzara chizish jarayonida rang xususiyatlaridan foydalanish usullari

Sirojiddin Jomoldin-o'g'li Komoldinov
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada manzara rangtasvirida kompozitsiya, rang va koloritning badiiy-ifodaviy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ranglarning o'zaro munosabati, yorug'-soya, refleks va valyor tushunchalarining manzara tasviridagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, naturani kuzatish jarayonida yorug'lik muhiti, ob-havo holati, fasl va kunning turli vaqtlaridagi rang o'zgarishlarini to'g'ri idrok etishning ahamiyati yoritiladi. Maqolada rangtasviriy xatolarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilib, manzara etyudlarini bajarishda umumiy kolorit va rang uyg'unligini saqlash masalalari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: manzara rangtasviri, kompozitsiya, rang, kolorit, yorug'-soya, refleks, valyor, rang uyg'unligi, rang munosabatlari, estetik idrok

Methods of using color properties in landscape painting

Sirojiddin Jomoldin-oglu Komoldinov
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes the artistic and expressive significance of composition, color and color in landscape painting from a scientific and theoretical perspective. The relationship of colors, the role of the concepts of light-shadow, reflex and value in landscape painting is revealed. Also, the importance of correctly perceiving the light environment, weather conditions, seasons and color changes at different times of the day in the process of observing nature is highlighted. The article shows the causes of color painting errors and ways to eliminate them, and substantiates the issues of maintaining general color and color harmony when performing landscape studies.

Keywords: landscape painting, composition, color, color, light-shadow, reflex, value, color harmony, color relationships, aesthetic perception

Kompozitsiya jarayonida rang muhim estetik va mazmuniy omil sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Rassom qanday turdagi asar yaratmasin, avvalo ranglar uyg'unligi, ularning ifodaviy imkoniyatlari va psixologik ta'sirini chuqur o'rganishi zarur. Rang ustida olib borilgan izlanishlar asarning badiiy qiymatini oshirib, ijodiy

muvaffaqiyatga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. "Kompozitsiya" atamasi lotincha *compositio* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u qismlarni muayyan tartib va tizim asosida joylashtirish ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'at asarida kompozitsiya barcha tasviriy elementlarning rassom g'oyasi va badiiy niyatiga muvofiq holda joylashtirilishini ifodalaydi. Asarning mazmunan ta'sirchan bo'lishi, tomoshabin e'tiborini jalb etishi va unda estetik hayajon uyg'otishi kompozitsion yechimning puxta ishlab chiqilganligiga bevosita bog'liqdir.

Manzara etyudlarini bajarish jarayoni, odatda, kompozitsiyaning asosiy fazoviy tuzilmasini belgilashdan, ya'ni oldingi, o'rta va orqa planlarni aniqlashdan boshlanadi. Shu bilan birga, ko'rish nuqtasini to'g'ri tanlash, ish bajariladigan qog'oz yoki mato o'lchamini oldindan belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Manzara etyudi kompozitsiyasida osmon, yer va boshqa tasviriy obyektlar o'rtasidagi o'zaro mutanosiblik va badiiy bog'liqlikni aniqlash rassomdan chuqur tahlil va puxta kuzatuvni talab etadi. Tasvirlanayotgan obrazning badiiy ta'sirchanligi ko'p jihatdan tanlab olingan naturaning qanchalik mazmunli va ifodali ekanligiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli rassom naturani tasodifiy emas, balki ongli ravishda tanlashi, uning eng xarakterli va estetik jihatdan kuchli tomonlarini aniqlay olishi zarur. Buning uchun natura turli holatlarda, kunning har xil vaqtlarida, yorug'lik va muhit sharoitlari o'zgarib turgan paytlarda sinchkovlik bilan kuzatilishi lozim. Aynan ana shunday kuzatuvlar orqali rassom naturaning ichki ifodaviy imkoniyatlarini ochib bera oladi.

Kompozitsion yechimni topishda ufq chizig'ini to'g'ri belgilash, obyektga o'ng va chap tomondan, yaqin va uzoq masofadan qarab ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday bir ko'rish nuqtasi tanlanishi kerakki, u naturaning ifodaviy kuchini maksimal darajada namoyon etib, rassomning badiiy niyatini to'laqonli amalga oshirishga xizmat qilsin. Tasviriy san'at asarida mavjud bo'lgan barcha unsurlar rassomning g'oyaviy maqsadiga bo'ysundiriladi. Kompozitsiyaning mukammalligi, avvalo, asosiy va ikkinchi darajali obyektlarni aniq farqlay olishda namoyon bo'ladi. Har bir detal kartina ichida o'z o'rni va mazmuniy vazifasiga ega bo'lib, tasodifiy elementlarga yo'l qo'yilmaydi. Ikkinchi darajali, yordamchi unsurlar tomoshabin nigohini chalg'itmasligi, balki asosiy obyektga yanada ta'kidlashga xizmat qilishi lozim. Asosiy obyekt kartinada alohida e'tibor bilan, rang, tus, shakl va aniqlik jihatidan ajratib ko'rsatilishi zarur. Insonning vizual idrok xususiyatlariga ko'ra, kuzatuv jarayonida diqqat odatda bitta muhim deb hisoblangan nuqtaga jamlanadi. Ushbu obyekt ko'rish maydonining markazida joylashib, uning eng mayda detallarigacha aniq idrok etiladi. Ko'rish markazidan chetda qolgan boshqa unsurlar esa umumiy, yaxlit holatda qabul qilinadi.

Shuningdek, manzara rangtasvirida refleks hodisasidan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Refleks - tasvirlanayotgan predmet rangining atrofda boshqa obyektlardan qaytgan yorug'lik yoki rang ta'sirida o'zgarishidir. Ushbu rang

o'zgarishlarini to'g'ri aniqlash va tasvirga singdirish manzaraning rangdorligi, hayotiyliги va realistik ifodasini ta'minlaydi. Manzara rangtasvirida har bir rang surtmasiga alohida e'tibor bilan yondashish zarur. Asarni professional darajada ishlash rassomning naturada mavjud ranglar o'rtasidagi munosabatlarni real holatda ko'ra bilishi va ularni ishonchli tarzda tasvirga ko'chira olishi bilan belgilanadi. Ranglar o'rtasidagi o'zaro nisbatni his qilish va ifodalash malakasini shakllantirish uchun manzara obyektlarining yorug'-soya ta'sirida yuzaga keladigan rang o'zgarishlarini turli sharoitlarda kuzatish va qiyoslash samarali natija beradi.

Naturadagi obyektlarning rangli ko'rinishi ularning yoritilish darajasi hamda atrofdagi boshqa obyektlarning soya va refleks ta'siriga bevosita bog'liq holda o'zgaradi. Masalan, tong paytida manzara sariq-oltin ranglar bilan jilolanadi, oy nurida kulrang-moviy tusga kiradi, bulutli havoda esa to'qroq, kumushsimon ranglar ustunlik qiladi. O'rmon muhitida esa ranglar, asosan, iliq yashil tusga moyil bo'ladi.

Manzara chizish jarayonida rangtasvirning plastik ifoda vositalaridan ham keng foydalaniladi. Buning uchun naturadagi ranglar dinamikasini, ya'ni yorug'likning o'zgarishi bilan ranglarning harakatini diqqat bilan kuzatish talab etiladi. Ana shundagina yorug' va soya dog'larining kartina bo'ylab tabiiy taqsimlanishiga erishish, asarning jonli, ta'sirchan va estetik jihatdan mukammal chiqishini ta'minlash mumkin bo'ladi. Umuman olganda, tasviriy san'at asarini idrok etish jarayoni o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega. Tomoshabin asarni, avvalo, alohida detallari orqali emas, balki yaxlit holda qabul qiladi, shundan so'ng asta-sekin kartinadagi mayda qismlar va detallarni ilg'ay boshlaydi. Shu bois rangtasvir asarida tomoshabin nigohini birinchi bo'lib jalb qiladigan, uning estetik taassurotini shakllantiradigan asosiy omil rang va umumiy kolorit hisoblanadi.

Kolorit manzara rangtasviri jarayonida rassom alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan eng muhim badiiy omillardan biridir. Kolorit tushunchasi tasviriy san'at asarida qo'llanilgan ranglarning o'zaro uyg'unligi, bir-biri bilan bog'liqligi va yaxlit tizimda namoyon bo'lishini anglatadi. Aynan kolorit rangtasvir asaridagi badiiy obrazning emotsional-ifodaviy ta'sirini belgilovchi yetakchi vositalardan biri hisoblanadi. Ranglar uyg'unligiga qarab kolorit iliq yoki sovuq, yorug' yoki xira bo'lishi, shuningdek, sokinlik, barqarorlik yoxud bezovtalik kabi ruhiy holatlarni ifodalashi mumkin. Manzara ishlash jarayonida, ayniqsa boshlang'ich bosqichdagi rassomlar uchun, predmetlarning rangi haqidagi avvaldan shakllanib qolgan tasavvurlar jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilishi mumkin. Predmet qaysi yorug'lik muhitida joylashganidan qat'i nazar, uning "doimiy" rangi haqidagi tasavvur rassom xotirasida saqlanib qoladi. Natijada tajribasiz rassomlar etyud ishlash jarayonida obyektни real rang munosabatlariga emas, balki o'zidagi oldindan shakllangan tasavvurlarga tayangan holda tasvirlaydi. Masalan, maysalarning rangini masofa, havo muhiti va yoritilish darajasiga bog'liq holda o'zgarishini hisobga olmasdan, ularni bir

xil yashil rangda berish rangtasviriy xatolarga olib keladi. Manzara rangtasviridagi yana bir muhim masala - kartinada ob-havo holatini, faslni hamda kunning turli vaqtlaridagi yoritilish xususiyatlarini ifodalay olishdir. Bu, avvalo, asarda umumiy tus va rang kayfiyatini yaratish bilan bog'liq. Tabiatning tez o'zgaruvchan holatlari - erta tong, peshin, kechki payt, nam yoki quruq havo, bulutli va quyoshli kunlar - har biri o'ziga xos rang gammasini talab etadi. Shu bois turli vaqtlarda hamda turlicha ob-havo sharoitida ishlangan manzara etyudlari yoritilish darajasi, rang turlari va umumiy koloritiga ko'ra sezilarli farq qiladi.

Tabiatning turli yoritilish holatlaridagi rang o'zgarishlarini chuqurroq o'rganish uchun bir xil manzara motivini turli sharoitlarda - masalan, bulutli va quyoshli kunda, yoz va qish fasllarida kuzatish va tasvirlash samarali hisoblanadi. Manzarada umumiy tus va ranglar uyg'unligining, ya'ni kolorit yaxlitligining yo'qligi rang-tuslarning parokandaligiga olib keladi. Bunday asar na tabiatning go'zalligini to'laqonli ifodalay oladi, na tomoshabinning estetik va hissiy tuyg'ulariga yetarli darajada ta'sir ko'rsata oladi.

Xulosa qilib aytganda, manzara rangtasvirida badiiy mukammallikka erishish rassomning rang va koloritni chuqur anglashiga bevosita bog'liqdir. Kompozitsion muvozanat, asosiy va ikkinchi darajali obyektlarning to'g'ri joylashtirilishi, ranglarning o'zaro uyg'unligi hamda yorug'-soya munosabatlarini to'g'ri aks ettirish asarning estetik ta'sirchanligini belgilaydi. Rassom naturani turli yoritilish sharoitlarida sinchkovlik bilan kuzatib, ranglarning muhit ta'sirida o'zgarishini his eta olishi zarur. Umumiy kolorit va rang kayfiyatining yaxlitligi manzara asarining hayotiyligi va ifodaviyligini ta'minlab, tomoshabinda kuchli estetik taassurot uyg'otadi. Shu bois rangtasvir amaliyotida rang munosabatlarini idrok etish va ularni ongli ravishda qo'llash rassom mahoratining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. oqli Oktabrov, M. A. (2025, December). WAYS TO ENHANCE STUDENTS'ARTISTIC AND AESTHETIC TASTE IN FINE ARTS LESSONS. In Claritas Conference Platform (No. 3, pp. 8-12).

2. oqli Oktyabrov, M. A. (2025). THE EMOTIONAL EXPRESSION OF ARTISTS THROUGH COLORS AND THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF COLORS IN ARTWORKS. European Review of Contemporary Arts and Humanities, 1(4), 30-34.

3. Adhamjon o'g'li, O. M. (2025). INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BOLALARINI DEKORATIV RASM CHIZISHGA O'RGATISHNING DIDAKTIK AHAMIYATI. IMRAS, 8(6), 142-147.

4. Adhamjon o'g'li, O. M. (2025). NATYURMORT TUZISH VA UNI TASVIRLASH USULLARI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(33), 75-80.

5. ugli Dominjonov, K. F. (2026). THE HARMONY OF FOLK APPLIED ART AND CONTEMPORARY ART IN POTTERY WORKS. *European Review of Contemporary Arts and Humanities*, 2(1), 32-35.
6. Dominjonov, K. (2025). O 'rta asr kulolchiligida sir tayyorlash texnologiyasi va uning zamonaviy ahamiyati. *Science and Education*, 6(11), 1019-1023.
7. Taxirovich S. N. et al. BADIY TASVIR VOSITALARIDA METONIMIYANING LINGVISTIK TAVSIFI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 34. – №. 3. – C. 42-45.
8. Toxirovich S. N. VISUAL ARTS TEACHING METHODOLOGY AND PROBLEMS AND SOLUTIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 5. – C. 569-571.
9. Taxirovich S. N. BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA ETNOMADANIY KOMPYETYENSIYANI MILLIY-HUDUDIY MATYERIALLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH.
10. Takhirovich S. N. USE OF THE REGIONAL COMPONENT IN FINE ARTS CLASSES 5-7 //Archive of Conferences. – 2021. – C. 1-3.
11. Suyarov N. T., Erkaev E. T. IMPLEMENTATION OF NATIONAL-REGIONAL COMPONENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. – 2021.
12. Suyarov N., Ubaydullaev S. Use of national-regional component in art lessons //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 8. – C. 222-227.
13. Suyarov N. T. Implementation of the national-regional component in the educational process //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – T. 11. – №. 11. – C. 511-514.
14. Suyarov N. TIPS AND METHODS OF USING NATIONAL FOLKLORE IN APPLIED ART LESSONS.
15. qizi Odilboyeva, U. Z. (2025, December). THE SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL INFLUENCE OF TEACHER COGNITION THEORY ON METHOD SELECTION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. In International Conference Platform (No. 6, pp. 152-157).
16. Odilboyeva, U. (2025). TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI YO 'NALISHI TALABALARIGA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA INGLIZ TILINI O 'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 320-322.
17. Raximov H. O 'QUVCHILARGA MANZARA JANRINI O 'RGATISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O 'RNI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – №. 4.3. – C. 214-218.
18. Раҳимов, Х. (2023, December). ТАСВИРИЙ САНЪАТ НАМУНАЛАРИ ОРҚАЛИ САНЪАТШУНОСЛИК СОҲАСИГА ТАЙЁРЛАШ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions" (Vol. 1, No. 01).
19. Ugli, A. K. M., & Islomovich, S. F. (2022). The History of Kosonsoy and the Spectacles of the Square are Snografias. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 3(12), 69-72.

20. Islomovich, S. F. QALAMTASVIR MASHG „ULOTLARIDA TALABALARNI KOMPOZISIYA OID BILIM VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH.

21. Xojimurodov, S. M. O. G. L. (2025). O ‘zbekiston an’anaviy kulolchiligida terrakota plastikasining shakllanishi va badiiy-estetik xususiyatlari. *Science and Education*, 6(11), 1012-1018.

22. Oripov, B. (2025). O ‘QUVCHILARNING RUHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA VA TARBIYALASHDA, XALQ AMALIY SAN’ATINING O ‘RNI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 6-9.

23. Oripov, B. (2022). DEVELOPMENT OF STUDENTS'EDUCATION THROUGH PERCUSSION AND PERCUSSION MUSICAL INSTRUMENTS. *Models and methods in modern science*, 1(15), 177-179.

24. BADIRJANOVICH, O. (2020). THE ROLE OF CERAMICS IN PROFESSIONAL TRAINING OF YOUNG PEOPLE IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. *THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS Учредители: The USA Journals*, 2(9), 447-451.

25. Boltaboev, A. X. O. G. L. (2025). Technologies for the development of students’ creative abilities in individual classes. *Science and Education*, 6(11), 909-911.

26. Xasanboy o‘g‘li, B. A. UMUMTA’LIM MAKTABLARINING BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINI TASVIRIY SAN’ATGA O ‘RGATISHNING MAQSADI VA MAZMUNI.

27. O‘G‘Li, B. A. A., & G‘Aybullayeva, T. O. Q. (2025). Portret san’atida kompozitsiya tushunchasi va uning badiiy ifodadagi ahamiyati. *Science and Education*, 6(12), 656-661.

28. O‘G‘Li, B. A. A., & Diyora, G. (2025). Natyurmort janri orqali madaniy merosni aks ettirish masalalari. *Science and Education*, 6(12), 650-655.

29. O‘G‘Li, B. A. A. (2025). Mustaqil ijodiy faoliyat tushunchasi va uning ta’lim jarayonidagi o ‘rni (rangtasvir fani misolida). *Science and Education*, 6(12), 640-644.

30. O‘G‘Li, B. A. A., & Yoqubova, M. B. Q. (2025). Rangtasvirda manzara ishlash jarayonida qisqa muddatli etyudlardan foydalanishning pedagogik samaradorligi. *Science and Education*, 6(12), 662-667.

31. O‘G‘Li, B. A. A. (2025). Rangtasvir mashg ‘ulotlarini tashkil etishda kreativ va innovatsion yondashuvlarning didaktik ahamiyati. *Science and Education*, 6(12), 527-533.

32. ugli Boltaboev, A. K., & Khaydarova, M. K. (2026). DEVELOPMENT OF AESTHETIC THINKING OF SCHOOLCHILDREN THROUGH COMPUTER DESIGN. *European Review of Contemporary Arts and Humanities*, 2(1), 42-44.

33. Faxriddin o‘g‘li, D. K. (2026). O‘ZBEKISTON KULOCHILIGIDA TARIXIY SHAXSLAR TALQININING BADIY TAHLILI. *SHOKH LIBRARY*, 1(1).

34. Oripov, B. B. (2025). The connection of fine arts to biological science. *Science and Education*, 6(12), 621-626.

35. Oripov, B. B. (2025, December). INCREASING THE SCIENTIFIC COMPONENT OF THE ART OF POTTERY IN STUDENTS. In International Conference Platform (No. 6, pp. 134-137).

36. Oripov, B. B. (2025). The connection of fine arts to biological science. Science and Education, 6(12), 621-626.

37. Tadjibaev, A. B. (2014). The role of subject teachers in providing a unified graphics mode. The Advanced Science. Open access journal.–United State, (9-2014), 43-45.

38. Tadjibayev, A. (2025). YAGONA GRAFIKAVIY TEXNOLOGIYANI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 291-295.

39. Dominjonov, K. F. U. (2026, January). APPLICATION OF NEW TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF POTTERY PRODUCTS. In International Conference Platform (No. 1, pp. 36-39).